

ISSN: 2181-4031

DOI Journal 10.56017/2181-4031

JOFS

5-СОН

МАЙ, 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

Journal of Fundamental Studies

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ



IMFAKTOR
PAGES



ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

ТОШКЕНТ – 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-5>

Бош муҳаррир:

Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

Кенжабаев А. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Саттаров О. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Исҳоқов М. – тарих фанлари доктори, профессор

Абдуҳалимов Б. – тарих фанлари доктори, профессор

Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент

Мадумаров Т. – юридик фанлар доктори, профессор

Қодиров Б. – юридик фанлар доктори, доцент

Қиличев Х. – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори

Баҳодиров Р. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Саифназаров И. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Идиоров У. – сиёсий фанлар доктори, профессор

Абдуллаев Н. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Сатторов А. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Умаров А. – социология фанлари доктори, профессор

Матибаев Т. – социология фанлари доктори, профессор

Каюмов К. – социология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

Иқтисодиёт фанлари

ISAQOVA Shirinabonu Muzaffar qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya

akademiyasi tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7974749>

О‘ЗБЕКИСТОНДА ПЕНСИЯ ТА’МИНОТИ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАСHTИРИШ

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimining amaldagi holati va uni takomillashtirish yo'nalishlari va O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlari va takomillashtirish yo'llari yoritib berilgan shuningdek, jahonda mavjud pensiya ta'minoti tizimi, nodavlat pensiya ta'minoti tizimi keltirilgan hamda xorij tajribasini qo'llagan holda mavjud pensiya tizimidagi muammolarni bartaraf etish va takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: pensiya tizimi, pensiya, nafaqa, avlodlar birdamligi, yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, mehnat layoqati, pensionerlar, iqtisodiy bog'liqlik koeffitsienti, majburiy pensiya sug'urtasi, ixtiyoriy pensiya tizimi.

ИСАГОВА Ширинабону Музаффар кызы

Республика Узбекистан Банк-Финансы

слушатель академии

СИСТЕМА ПЕНСИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ УЛУЧШЕНИЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещено текущее состояние и направления совершенствования системы пенсионного обеспечения в нашей стране, а также особенности и пути совершенствования системы пенсионного обеспечения Узбекистана.

Ключевые слова: пенсионная система, пенсия, пособие, солидарность поколений, пенсия по старости, пенсия по инвалидности, пенсия по случаю потери кормильца, трудоспособность, пенсионеры, коэффициент экономической нагрузки, обязательное пенсионное страхование, добровольная пенсионная система.

ISAKOVA Shirinabonu Muzaffar kizi

Bank of the Republic of Uzbekistan-finance

Academy listener

PENSION PROVISION SYSTEM IN UZBEKISTAN IMPROVEMENT

ANNOTATION

In this article, the current state of the pension supply system in our country and the directions of its improvement and the specifics and ways of improvement of the pension supply system of Uzbekistan are highlighted, as well as the world's existing pension supply system, non-state pension supply system, and proposals and recommendations for eliminating and improving problems in the existing pension system using foreign experience have been developed.

Keywords: pension system, pension, benefit, solidarity of generations, old-age pension, disability pension, survivor's pension, work capacity, pensioners, economic dependency ratio, compulsory pension insurance, voluntary pension system.

Hozirda jahonda fuqarolar pensiya ta'minoti bilan bog'liq bir qancha muammolar bor va ularga yechim izlab topilmoqda bularning hammasi fuqarolarning qariganda yoki mehnat layoqatini yoqotganda o'zlarining birlamchi xarajatlarini qoplay bilishi hamda sohadagi kamchiliklarni bartaraf qilish orqali aholi faravonligini yaxshilash maqsad qilingan va o'zimizning pensiya tizimida ham bir qancha o'zgarishlar amalga oshirilmoqda va bir qancha xorijiy mamlakatlar pensiya tajribalari o'rganilib O'zbekistonga joriy qilish va bu orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar ko'rib chiqilayotganligi e'tiborga molik, davlatimizning ushbu sohada amalga oshirgan ishlar va rejalashtirayotgan ishlarni tahlil qilish orqali sohani mukammal bir tizim holatiga olib chiqish mumkin va biz bu yo'lga chiqdik desak mubolag'a bo'lmaydi [14].

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiriq etilayotgan 2022-2026-yillarda amalga oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son., asosiy maqsadi "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilga asoslangan, "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosidagi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida amalga oshirishga oid davlat dasturlarida ushbu tizimni rivojlantirishga doir bir qancha vazifalar belgilab qo'yilgan bo'lib, taraqqiyot strategiyasi IV bobining 53 va 54 –maqsadlari aynan pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni o'z ichiga oladi [11]. Ushbu islohotlar insonga munosib turmush sharoitlarini yaratishdan iborat.

Jahon amaliyotida pensiya ta'minoti ijtimoiy muxofazaning ajralmas qismi hisoblanib, davlatning asosiy funktsiyalaridan biri hisoblanadi. Davlatning tuzilishi va imkoniyatlariga muvofiq holda fuqarolarning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlari birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi"ning 22-moddasida qayd etib o'tilgan. Unga ko'ra, pensiya ta'minoti – muayyan davlat qonunchiligida o'rnatilgan tartibda, asosiy daromad manbasini qariyalik, nogironlik va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarni moddiy ta'minlashga yo'naltirilgan huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasidir [12].

Nemis iqtisodchisi A.Борш-Супан Evropa mamlakatlarida pensiya tizimini (xususiy, birdamlik pensiya tizimi) isloh qilishning asosiy muammolarini qilinayotgan xarajat va aholining o'rtacha umr ko'rish yoshining o'sishi nuqtai nazardan ko'rib chiqqan [6].

Rozanov Jahon amaliyotida jamg'arib boriladigan va taqsimlanuvchi pensiya modellari sofi holda kam uchrashini shuningdek, bir vaqtning o'zida majburiy va ixtiyoriy jamg'arib boriladigan qismlari mavjud pensiya tizimi iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlar orasida faqat Norvegiyada amal qilishini ta'kidlaydi [8].

Vavulin xususiy pensiya fondlari – notijorat moliyaviy tashkilotlar bo'lib, pensionerlarning ixtiyoriy qo'yilmalari hisobiga ularni moliyaviy nafaqa bilan ta'minlaydi va ular majburiy pensiya sug'urtasi va nodavlat (qo'shimcha) pensiya ta'minoti bilan shug'ullanadilar, deb izohlaydi [9].

Novikov xususiy pensiya fondlari pensiya jamg'armalari mablag'lari va rezervlarni samarali investitsiya qilib, fuqarolarga ular pensiya yoshiga yetganlarida o'z shaxsiy pensiyalari miqdorini sezilarli ko'paytirish imkonini beradi, deb ta'riflaydi [10].

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, pensiya ta'minoti tizimi - bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarni qarilik, kasallik, mehnat qobiliyatini to'la yoki qisman yo'qotish, boquvchisini yo'qotganlik, ishsizlik holatlarida moddiy ta'minlanishlariga bo'lgan konstitutsion huquqlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlashi lozim bo'lgan asosiy ijtimoiy himoya institutlaridan biridir. Olinadigan mablag'lar miqdori sug'urta (mehnat) staji davomiyligi, ish haqi miqdori, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga bog'liq bo'ladi va qonun asosida tartibga solinadi [1].

AQShning Arizona universiteti professori J.Peng tadqiqotlarida pensiya ta'minotiga oid qarashlar bayon etilgan bo'lib, u ishlovchilarning mehnat faoliyatidan keyingi moliyaviy barqarorligining keskinlashuvini hamda pensiya ta'minotining dolzarb masalalarini ko'tarib chiqadi.

J.Peng pensiyani fuqarolarning qarilikdagi moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi eng muhim daromad manbai ekanligini e’tirof etib, mazkur tizimda hozirdagi mavjud muammolarni va istiqboldagi o’zgarishlarni tadqiq qilgan [3].

Iqtisodchi-olim Yu.N.Borisenko tadqiqotlari fuqarolarni keksalik davrida kambag‘allikdan himoyalash, mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to‘lanadigan ish haqi miqdoriga proporsional tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta’minlash, bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash kabilar pensiya tizimining asosiy maqsadi ekanligi, pensiya tizimining barqaror amal qilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning garovi hisoblanishi va aksincha, pensiya ta’minotining nobarqarorligi kuchli ijtimoiy xavfni yuzaga keltirishi kabilar bayon qilingan [5].

Pensiya tizimi – ijimoiy, iqtisodiy va huquqiy institutlarni birlashtiruvchi organizm bo‘lib, u jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarining manfaatlarini qondirish uchun mo‘ljallangan. Pensiya tizimi – bu ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordamning bir ko‘rinishidir [11].

Yuqoridagi pensiya tizimi haqidagi fikrlarni inobatga olgan holda, pensiya tizimida qamrab olinadigan aholi qatlami uchun pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta’minotiga, fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini ta’minlashga, shuningdek, fuqarolarni keksalik davrida kambag‘allikdan shuningdek, nodavlat pensiya taminotiga aholini qamrab olish bilan birgalikda pensiya ta’minoti tizimining barqaror ishlashiga va aholini himoyalashga, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining ijtimoiy adolatni ta’minlashga, pensiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalari yanada to‘liqroq bo‘lishiga erisha olamiz.

Tadqiqot o‘tkazish jarayonida O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimi, bugungi holati va rivojlantirish istiqbollarning nazariy asoslari hamda ko‘pchilik xorijiy mamlakatlarning pensiya ta’minoti tizimida mavjud nodavlat pensiya ta’minoti o‘rganildi, keksalar uchun qashshoqlik darajasi, iqtisodiy bog‘liqlik koeffitsienti, jahondagi ayrim davlatlarda pensiya yoshidagi aholining va mehnatga layoqatli yoshdagilarga nisbatlari tahlil qilindi, shuningdek mantiqiy fikrlash, induksiya, deduksiya va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Mamlakatimiz pensiya tizimini chuqur tahlil qilish va pensiya ta’minotining modernizatsiyalashni nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tadqiq etish ijtimoiy siyosatni manzilliligini kuchaytirishning dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.


1-jadval.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotidagi ijtimoiy himoya va pensiya tizimlari [7]

Skandinaviya tizimi	Bismark tizimi	Beveridj tizimi
	Asosiy tamoyillari	
Mamlakatda yashovchi barcha fuqarolar ijtimoiy ta’minlanish huquqiga ega.	Jamiyat a’zolariga ijtimoiy ta’minot uchun zarur daromadni topishga imkoniyat beriladi.	Ayrim holatlarga (kasallik, homiladorlik va tug‘ish, pensiya Yoshi, o‘lim) fuqarolari ijtimoiy sug‘urta bilan qamrab olinadi
	Asosiy maqsadi	
Mamlakatda to‘liq bandlikka erishishda davlat mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladi.	Mamlakatda fuqarolarning daromadlarini himoya qilishni davlat o‘z zimmasiga oladi.	Mamlakatda fuqarolarning minimal darajadagi daromadlarini himoya qilishni davlat o‘z zimmasiga oladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan budget-soliq siyosatidagi asosiy yoʻnalishlar, eng avvalo, aholi farovonligini taʼminlash, uni ijtimoiy jihatdan himoyalash, mahalliy budjetlarni rivojlantirish va daromad bazasini kengaytirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishga qaratilgan. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan xarajatlarning maqsadli sarflanishi, aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy taʼminlash, sogʻliqni saqlash va taʼlimni rivojlantirish, fuqarolik jamiyati sari dadil odimlab borayotgan Respublikamiz uchun nihoyatda muhim masalalardir.

Bugungi kunda dunyoning koʻplab davlatlarida pensionerlar yetarli darajada turmush darajasi bilan taʼminlanmagan. Shuning uchun aksariyat mamlakatlarda aholi ijtimoiy himoya qilish mexanizmlaridan biri boʻlgan pensiya taʼminotini isloh qilish jarayoni ketmoqda.




1-rasm. Keksalar uchun qashshoqlik darajasi eng yuqori boʻlgan davlatlar [15]

Mamlakatimizda pensiya tizimini isloh qilish, xususan, xususiy pensiya fondlarini tashkil etishga ruxsat berish, pensiya fondlarini kapital bozorida ishtirokini taʼminlash Oʻzbekiston moliya tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Rivojlangan mamlakatlarda nodavlat pensiya jamgʻarmalari qoʻshimcha pensiya taʼminoti vositasi boʻlibgina qolmay, ayni paytda yirik hajmdagi uzoq muddatli investitsiyalar manbai hisoblanadi. Nodavlat pensiya jamgʻarmalarini moliyaviy imkoniyatiga koʻra faqat bank tizimi bilan qiyoslash mumkin. Ayni paytda nodavlat pensiya jamgʻarmalari afzalliklari ularning qoʻshimcha pensiya taʼminotining xilma-xil sxemalaridan foydalanishi bilan ifodalanadi, xususan, bank depoziti tamoyili boʻyicha oddiy jamgʻarishdan to nodavlat pensiya jamgʻarmalariga mablagʻlarni mustaqil, ish beruvchi va yoki vasiylik tashkilotlari tomonidan oʻtkazishning aralash sxemalarigacha qoʻllaniladi [13].

Pensiya taʼminoti tizimi aholining mehnatga layoqatsiz va muhtoj qismining turmush darajasini oshirishga yoʻnaltirilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutadi. Fuqarolarni keksalik davrida kambagʻallikdan himoyalash, mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan toʻlanadigan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni taʼminlash, bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash kabilar pensiya tizimining asosiy maqsadlaridandir [11].

Yosh boʻyicha pensiya oluvchilarning soni oshib borayotgan sharoitda hozirgi mavjud davlat pensiya taʼminoti tizimi iqtisodiy faol aholi qatlamiga pensiya toʻlovlari yukining oshishiga olib kelmoqda, ushbu holatni yoshga doir pensiya taʼminotining moliyaviy barqarorligini baholovchi koʻrsatkichlardan biri iqtisodiy bogʻliqlik koeffitsienti orqali aniq tahlil qilish mumkin.



2-rasm. O‘zbekistonda iqtisodiy bog‘liqlik koeffitsienti ko‘rsatkichlari

O‘zbekistonda bir nafar pensiya yoshdagi aholiga nechta band aholi to‘g‘ri kelishi, 2018-yilda bir nafar pensionerga 4.1(1:4.1) nafar band aholi to‘g‘ri kelayotganligini hamda ushbu ko‘rsatkich yillar o‘tishi bilan kamayganligini va 2022-yil bir nafar pensionerga 3.7 nafar band aholi to‘g‘ri kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xalqaro mehnat tashkilotining talablariga muvofiq, fuqarolarning pensiya ta‘minoti tizimini barqaror rivojlanishi uchun badal to‘lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o‘zaro nisbati 1:4 darajada bo‘lishi ko‘rsatilgan[2]. Bugungi kunda O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1 : 3,7 ga teng.

2-jadval

Jahondagi ayrim davlatlarda pensiya yoshidagi aholining va mehnatga layoqatli yoshdagilarga nisbati: (prognoz, 1950-2080) [15]

	2020	2050	2080
Avstraliya	27.7	41.6	49.4
Austriya	31.3	56	60.2
Belgiya	33.1	51.3	56.8
Kanada	29.8	44.9	54
Chili	19.7	44.6	67.5
Finlandiya	40.1	51.4	65
Fransiya	37.3	54.5	62.2
Germaniya	36.5	58.1	59.5

Mamlakatimizda pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, qariyalar va keksa yoshdagilarga har tomonlama g‘amxo‘rlik qilish, fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish va sohada mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy himoya kontseptsiyasi aholi turmush farovonligini oshirish, kam ta‘minlangan oilalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, yolg‘iz keksalar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa aholi qatlamlariga moddiy va ma‘naviy yordam qo‘lini cho‘zishda o‘z aksini topmoqda [11].

O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta‘minoti tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish uchun mamlakatimizda ham boshqa rivojlangan mamlakatlardagi kabi ko‘p pog‘onali pensiya tizimini joriy qilish masalalarini chuqur tahlil qilish va amaliyotga joriy qilish masalalarini tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Jahonda pensiya ta'minoti muammolarini hal etishning hozirgi bosqichida pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa, fuqarolarning ijtimoiy ta'minot huquqlarini ta'minlanishi va kelgusida ularni munosib pensiya bilan ta'minlash kafolatlarini yaratish hamda pensiya ta'minotiga oid qonunchilik normalarini qayta ko'rib chiqish, pensiya sohasida ularga nisbatan ijtimoiy adolat printsiplarini buzilishini oldini olishga oid huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, pensiya ta'minotiga oid xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka moslashtirish bilan bog'liq masalalarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topish davlat pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa, pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblangan va shunday davom etmoqda. Mamlakat iqtisodiy salohiyati shuningdek aholi ijtimoiy muhofazasi bilan bog'liq ushbu masalada belgilangan qonun-qoidalarga qat'iy amal qilinishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarining oshishi va Pensiya jamg'armasi daromadlarining mavjud manbalarini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan masalalarni izchillik bilan hal qilish zarur. Hozirda, mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlar barcha sohalarni, jumladan, pensiya ta'minoti tizimini ham qamrab oladi.

Barcha rivojlangan mamlakatlarida kuzatilayotgan aholining keksayib borishi, ish bilan band aholiga nisbatan pensionerlar sonining doimiy oshib borishi, pensioner va ishlovchilar soni o'rtasidagi o'zaro nisbatning kattaligi pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda shu kabi muammolarni inobatga olgan holda sohani rivojlantirish uchun quyidagi takliflarga bildirib o'tmoqchimiz:

- aholini ijtimoiy himoyasini qo'llab quvvatlash choralarini yanada mustahkamlash bu orqali qashshoqlik darajasini kamaytirish;

- yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal mehnat staji davomiyligining shart-sharoitlarini o'rganishni (Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konventsiyasida yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etilgan eng kam staj 15 yil qilib belgilangan [4]. Dunyoning ko'plab davlatlari, jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida talab etilgan eng kam ish staji 10-15 yilga yetkazilgan);

- pensiyaga kech chiqishni rag'batlantirish va to'liq staj bilan pensiyaga chiquvchilar sonini oshirish;

- korporativ pensiya va nodavlat pensiyalar joriy etilgan davlatlar tajribalarini o'rganish va ular faoliyatini tartibga solishning samarali tizimini yaratish hamda amaliyotga tadbiiq qilish;

- pensiya ta'minotiga oid qonunchilikni yanada muvofiqlashtirish hamda takomillashtirish maqsadga muvofiq.

IQTIBOSLAR/ЧОСКИ/REFERENCES

1. Li A. O‘zbekiston Respublikasi moliya huquqi: Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: “TDYU”, 2006. 241-b.
2. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil.
3. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 45.
4. Конвенция Международной Организации Труда “О минимальных нормах социального обеспечения” (№102). – 32 с.
5. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение: учебник. – М.: «Дашков и К0», 2009. – С. 8.
6. Börsch-Supan, A. and C. Coile (2018). “Social Security Programs and Retirement Around the World: Reforms and Retirement Incentives – Introduction and Summary”, NBER Working Paper 25280, Cambridge, MA
7. Bruce S. Jansson (2015) Social Welfare Policy and Advocacy Advancing Social Justice through 8 Policy Sectors. SAGE Publications, English. USA, P.19.
8. Rozanov A. (2015) Public pension fund management: best practice and international experience // Asian Economic Policy Review. 2015.№10.P.275-295.
9. Вавулин Д.А. (2016) Негосударственные пенсионные фонды: место в системе обязательного пенсионного страхования № 2. – С.162-176. / Vavulin D.A. (2016) Nonstate pension funds: a place in the system of compulsory pension insurance No. 2. - P.162- 176.
10. Новиков А.А. (2006) Особенности эволюции зарубежных систем // Мировая экономика и международные отношения.2006.№5. С.67 / Novikov A.A. (2006) Features of the evolution of foreign systems // World economy and international relations. 2006. No.5. P.67.
11. ТУРСУНОВ Ж.П., ЖУМАБАЕВА К.Б. Ўзбекистонда Пенсия таъминоти тизими: бугунги ҳолат ва ривожланиш истиқболлари // Фундаментал тадқиқотлар. № 1 (2023) Б. 25-33 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7539261>
12. Турсунов Ж.П., “Ўзбекистонда пенсия таъминоти тизимини истиқболда барқарор амалга оширилишини таъминлаш йўллари”, Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 1-son. 327-б.
13. Ш.У.Ражабов., “Нодавлат пенсия таъминотининг иқтисодий асослари”, “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 5, октябрь, 2019 йил. 3-б.
14. Jumabayeva K.B., “Hozirgi iqtisodiy sharoitida pensiya sohasidagi dolzarb masalalar va ularni hal qilish yo‘nalishlari”, 2023-yil. 430-b.
15. OECD (2021), Pensions at a Glance 2021: OECD and G20 Indicators, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/ca401ebd-en>
16. www.lex.uz
17. www.stat.uz

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz